

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019.T.10.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

JURAYEV KURBON HAFIZ O‘G‘LI

**MASOFADAN ZONDLASH MA‘LUMOTLARI ASOSIDA O‘RMON
O‘SIMLIKLARI DEGRADATSIYASINI GEOFAZOVIIY TAHLIL QILISH
USULINI TAKOMILLASHTIRISH
(Zomin milliy bog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi misolida)**

11.00.07 – Geoinformatika

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Jurayev Kurbon Hafiz o'g'li

Masofadan zondlash ma'lumotlari asosida o'rmon o'simliklari degradatsiyasini geofazoviy tahlil qilish usulini takomillashtirish (Zomin milliy bog' davlat o'rmon xo'jaligi misolida)..... 3

Жураев Курбан Хафизович

Совершенствование метода геопространственного анализа деградации лесной растительности на основе данных дистанционного зондирования Земли (на примере государственного лесного хозяйства Национального природного парка Заамин)..... 23

Juraev Kurbon

Improving the method for geospatial analysis of forest vegetation degradation using remote sensing data (a case study of the state forestry of Zaamin National Nature Park)..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019.T.10.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

JURAYEV KURBON HAFIZ O‘G‘LI

**MASOFADAN ZONDLASH MA‘LUMOTLARI ASOSIDA O‘RMON
O‘SIMLIKLARI DEGRADATSIYASINI GEOFAZOVIIY TAHLIL QILISH
USULINI TAKOMILLASHTIRISH
(Zomin milliy bog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi misolida)**

11.00.07 – Geoinformatika

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T6066 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Inamov Aziz Nizamovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponenlar:	Sultonov Murodjon Qilichovich geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent Reymov Mamanbek Polatovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi PhD 03/30.12.2019. T.10.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 20-iyun soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent sh, Qori Niyoziy ko'chasi, 39 uy. Tel.: (+99871) 237-09-71, faks: (+99871) 237-54-79, e-mail: admin@tiame.uz)

Dissertatsiya bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent sh, Qori Niyoziy ko'chasi, 39 uy. tel.(+99871) 237-19-45.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «_____» iyun kuni tarqatildi.

(2026 yil «_____» iyundagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.S.Shokirov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

S.N.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., (DSc)

E.Yu.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash asosidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda va uning turli mintaqalarida iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, haroratning oshishi hamda antropogen bosim ta'sirida o'rmon ekotizimlarining degradatsiyasi kuchayib bormoqda. Buning natijasida vegetatsiya qoplami qisqarishi, tuproq va havo namligining kamayishi, quruq biomassa hajmining ortishi kuzatilmoqda hamda o'rmon yong'inlari xavfi sezilarli darajada oshmoqda. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, so'nggi 20 yil davomida dunyoda sodir bo'lgan yirik o'rmon yong'inlari oqibatida yo'qolgan daraxt qoplami hajmi avvalgi davrlarga nisbatan qariyb 2 barobar ortgan. Global Forest Watch ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024-yillarda o'rmon yong'inlari soni oldingi davrga nisbatan 5,4 foizga oshgan bo'lib, mazkur jarayon natijasida 6 mln gektardan ortiq daraxt qoplami yo'qotilgan. Bu ko'rsatkich hududiy jihatdan Xorvatiya davlatining umumiy yer maydoniga teng keladi. Shuningdek, 2021-yilgacha o'rmon yong'inlari sababli daraxt qoplami yo'qotilishi umumiy yo'qotishlarning 22 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2021–2025-yillarga kelib ushbu ko'rsatkich 35 foizga yetgan¹. Mazkur holat o'rmon resurslarini raqamlashtirish, ularning holatini doimiy monitoring qilish, yong'in xavfi yuqori bo'lgan hududlarni oldindan aniqlash hamda favqulodda vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish bo'yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan masofadan zondlash ma'lumotlari va geoaxborot tizimlari asosida o'rmon yerlari holatini kompleks baholash, tahlil qilish va boshqarish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda masofadan zondlash va geoaxborot tizimi texnologiyalaridan foydalanish asosida o'rmon xo'jaligi yerlari holatini geofazoviy tahlil qilish, o'rmon maydonlari chegaralarini aniqlash, o'simlik turlarini tasniflash, ularning o'zgarish dinamikasini kuzatish hamda uzoq muddatli ma'lumotlar bazalarini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, yong'in xavfini prognozlash, o'simlik biomassasini baholash, noqonuniy kesish holatlarini aniqlash hamda degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklash bo'yicha ilmiy-uslubiy yechimlar takomillashtirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz o'rmon xo'jaligi yerlarining tabiiy-geografik, agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda geoaxborot texnologiyalari asosida o'simlik qoplaminin holatini baholash, ularning kamayishi yoki ko'payishini aniqlash hamda samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda o'rmon xo'jaligini rivojlantirish, o'rmon fondi yerlaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va monitoring qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'rmon yerlari va o'simlik qoplaminin geografik joylashuvini aniqlash, ularning raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ekologik nazorat tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda. ²2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...davlat monitoringi elektron

¹ <https://umd.edu/>

² <https://lex.uz/docs/5841063>

ma'lumotlar bazalarini yagona geoaxborot platformasiga integratsiya qilish, tabiiy resurslar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi va ochiqligini ta'minlash" hamda "Ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish hamda aholining ekologik madaniyatini oshirish" bo'yicha vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda o'rmon xo'jaligi ekinlarini maqbul joylashtirish, o'rmon fondi yerlarining holatini tezkor baholash, ularni masofadan monitoring qilish hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash bo'yicha zamonaviy usullarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi O'RQ-409-son "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, 2018-yil 16-apreldagi O'RQ-475-son "O'rmon to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi PQ-2966-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar, shuningdek Vazirlar Mahkamasining o'rmonlarning davlat hisobi va monitoringini yuritish, o'rmon fondi yerlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishga oid qarorlarida ushbu sohani ilmiy asosda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalarni samarali amalga oshirishda o'rmon xo'jaligi yerlarini masofadan zondlash va geoaxborot tizimlari asosida tahlil qilish, monitoring yuritish hamda boshqarish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I -"Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha (qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari)", III -"Axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha (axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari)" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sohaga tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, masofadan zondlash asosida o'rmon o'simliklari degradatsiyasini geofazoviy tahlil qilish usullari bo'yicha xorijiy davlat olimlari qatorida respublikamizda ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, o'rmon resurslarini geografik vizuallashtirish va masofaviy zondlash usullaridan foydalangan holda o'rmon o'simliklarini geofazoviy tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslari xorijiy olimlardan M.Wulder, N.Kups, E.Hudak, M.Pereyra, T.Mbah, A.Avono, B.Saux, J.Rizzo, R.Gimenez, J.Sanches, A.Kumar, A.Mohanti, K.Kalabokidis, G.Mertzanis, S.Parks, M.Krouz, B.Mays, L.Peter, H.Wang, X.Chen, N.Polys, P.Sforza va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida o'rmon yerlarini monitoring qilish, o'rmon yerlari hisobini yuritish, o'rmon daraxtlari pasportini yaratish hamda o'rmon yerlarini muhofaza qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari A.Burykin, S.Zonn, V.Tselishchev, A.Smagin, D.Vorobyov, V.Sofronov, P.Drachyov, B.Kharuk, A.Sokolov, S.Vonsky, N.Strakhov, M.Muxitdinov, L.Grebennikov, Y.Plyukhin va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

O‘zbekistonda o‘rmonlarni tashkil etish, o‘rmonlar hisobini yuritish hamda ularni monitoring qilish, kartografik jihatdan o‘rmon yerlarini geovizuallashtirish, degradatsiya ma‘lumotlarini olish va integratsiyalash, masofadan zondlash, fazoviy tahlillar hamda fazoviy ma‘lumotlar modellari bo‘yicha Sh.Shokirov, Sh.Narbayev, R.Jaqsbayev, M.Reyimov, I.Abduraxmonov, M.Matchanov, E.Berdiyev, K.Zokirov, R.Mahammadjanova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan hamda ijobiy natijalarga erishilgan.

Bugungi kunda o‘rmon xo‘jaligi yerlarining holatini masofadan zondlash ma‘lumotlari asosida kompleks baholash va geofazoviy tahlil qilish ishlari yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada o‘rmon hududlaridagi mavjud o‘simlik qoplami, ularning maydoniy o‘zgarishlari hamda degradatsiya jarayonlarini tezkor aniqlashda ayrim muammolar saqlanib qolinmoqda. Shu bois, o‘rmon xo‘jaligi yerlaridagi o‘simlik qoplami masofadan zondlash ma‘lumotlari asosida geofazoviy tahlil qilish, ularning holatini baholash hamda zamonaviy geoaxborot tizimlari texnologiyalari yordamida monitoring usullarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya ishi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, xususan, “Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarining ekologik holatini xaritaga olish uslubini takomillashtirish” (qayd raqami №1.13, 2023-2025), “Geofazoviy usullar orqali organik va an’anaviy dehqonchilikni qo‘llab-quvvatlash” AL-6222052520 davlat granti loyihasi (2023-2025) hamda “GAT dasturlari asosida o‘rmon o‘simliklarining sifat hisobi ma‘lumotlar bazasini yaratish” (2025-2026) mavzularidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi geoaxborot tizimi va masofadan zondlash texnologiyalari asosida o‘rmon o‘simliklari degradatsiyasini geofazoviy tahlil qilish usulini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sun‘iy intellekt algoritmlaridan foydalanib, masofadan zondlash asosida o‘rmon daraxtlari miqdorini aniqlash;

masofadan zondlash orqali o‘rmon o‘simliklarining qayta tiklanish dinamikasini monitoring qilish;

yong‘inga moyil o‘rmon hududlarini geofazoviy tahlillar asosida aniqlash;

yong‘in xavfini monitoring qilish uchun “GeoFire Monitoring” interaktiv veb-platformasini yaratish.

Tadqiqot obyekti sifatida sifatida Zomin milliy bog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi hududi olingan.

Tadqiqotning predmeti geoaxborot tizimi dasturlari, masofadan zondlash materiallari va veb-platforma asosida o‘rmon o‘simliklari degradatsiyasini geofazoviy tahlil qilish hamda yong‘in sodir bo‘lgan hududlarni masofadan aniqlash imkonini beruvchi “GeoFire Monitoring” interaktiv veb-platformasi yaratilgan.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada dala tadqiqotlari, geoaxborot texnologiyalari, sun'iy intellekt tahlili, geofazoviy, taqqoslash, hududiy statistika, geovizuallashtirish, interpolyatsiya algoritmlari, aerokosmik va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llagan holda, masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanib o'rmon daraxtlari miqdorini aniqlash usuli takomillashtirilgan;

masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanib, o'rmon xo'jaligi hududlarida degradatsiyaga uchragan o'simliklarning qayta tiklanish jarayonini geofazoviy tahlillar orqali monitoring qilish usuli takomillashtirilgan;

geoinnovatsion texnologiyalarni inobatga olib, yong'inga moyilligi bo'lgan o'rmon hududlarini masofadan zondlash ma'lumotlari asosida aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

o'rmon hududidagi videllar va bo'limlarni interaktiv tarzda ko'rish, o'simlik qoplami, daraxt turlarining tarqalishini va yong'inga moyilligi bor hududlarni geovizuallashtirish hamda hududni kompleks baholash ishlari "GeoFire Monitoring" interaktiv veb-platformasini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

masofadan zondlash ma'lumotlari asosida Zomin Milliy bog' davlat o'rmon xo'jaligi hududida "object detection" algoritmidan foydalanish orqali mavjud daraxtlarning soni hamda ularning hududiy joylashuvi aniqlangan;

masofadan zondlash ma'lumotlari yordamida NDVI-NBR-dMBR tahlillarini taqqoslash yo'li orqali o'rmon xo'jaligida yong'in sodir bo'lgan hududlarni aniqlash va qayta tiklash jarayonini monitoring qilish usuli takomillashtirilgan;

yong'inga moyilligi bo'lgan o'rmon xo'jaligi hududlarini avtomatlashgan tizim asosida aniqlash va moyillik darajalarini sinflarga ajratish algoritmi o'rmonga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan;

o'rmon hududidagi yong'inga moyilligi yuqori bo'lgan yer maydonlarini aniqlash, yong'in xavfini tezkor baholash hamda unga qarshi zarur chora-tadbirlarni belgilash maqsadida GAT asosida GeoFire Monitoring interaktiv veb-platfomasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda uning tasarrufidagi O'rmon xo'jaligi agentligi, Zomin o'rmon xo'jaligi va Zomin milliy tabiat bog'i materiallaridan foydalanilganligi, tadqiqotlar natijasi amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati masofadan zondlash ma'lumotlari va geoaxborot tizimlaridan foydalanib, Zomin milliy bog'i davlat o'rmon xo'jaligida mavjud daraxtlarning soni, joylashuvi va yong'inga moyil bo'lgan o'rmon xo'jaligi hududlarini hamda moyillik darajalarini turli sinflarga ajratishini aniqlash uchun algoritmi ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, Zomin milliy bog‘i hududida o‘rmonlarni muhofaza qilish, o‘rmon degradatsiyasini bartaraf etish, masofadan zondlash ma‘lumotlari va geoaxborot tizimlari yordamida o‘rmon hududlarini doimiy monitoring qilish imkoniyatini yaratish, yong‘in xavfini kamaytirish uchun tavsiyalar berish hamda tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Masofadan zondlash ma‘lumotlari asosida o‘rmon o‘simliklari degradatsiyasini geofazoviy tahlil qilish usulini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘rmon daraxtlarining sonini aniqlash hamda o‘rmon xo‘jaligi yerlarida degradatsiyaga uchragan o‘simliklarni qayta tiklanish dinamikasini masofadan zondlash ma‘lumotlari asosida monitoring qilish usullari Zomin o‘rmon xo‘jaligi va Zomin milliy tabiat bog‘ida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 10- noyabrdagi 03-03/1-03/3-11575-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Zomin milliy bog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligidagi mavjud daraxtlarning soni va ularning joylashuvini aniqlash, o‘rmon xo‘jaligida yong‘in sodir bo‘lgan hududlarni aniqlash va qayta tiklash jarayonini monitoring qilish imkoniyati yaratilgan;

yong‘inga moyilligi bo‘lgan o‘rmon hududlarini masofadan zondlash ma‘lumotlari asosida aniqlash algoritmi Zomin o‘rmon xo‘jaligi va Zomin milliy tabiat bog‘ida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 10- noyabrdagi 03-03/1-03/3-11575-son ma‘lumotnomasi). Natijada, masofadan zondlash ma‘lumotlari va xavf omillari (harorat, namlik, o‘simlik turlari) integratsiyasi orqali o‘rmondagi yong‘in xavfini oldindan aniqlash va uni oldini olish imkoniyati yaratildi;

“GeoFire Monitoring” nomli interaktiv veb-platforma Zomin o‘rmon xo‘jaligi va Zomin milliy tabiat bog‘ida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 10- noyabrdagi 03-03/1-03/3-11575-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Zomin milliy bog‘ va davlat o‘rmon xo‘jaligi hududlarini raqamli modulini ko‘rish, tahlil qilish, yer maydonlarini aniqlash, o‘simliklar tarqalishini kuzatish, yong‘inga moyilligi bo‘lgan hududlarini hamda o‘rmon yerlaridagi namlik va harorat ko‘rsatkichlarini masofadan turib aniqlash imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ishning tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalarning joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘rmon xo‘jaligi yerlarining sifat va miqdor jihatidan hamda o‘simliklarini degradatsiyaga uchrash jarayonlarini tahlil qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o‘rmon xo‘jaligi yerlari hisobi, tabiiy sharoiti va iqlim ko‘rsatkichlari, o‘rmon xo‘jaligi yerlarini aniqlash, undagi o‘simliklar dunyosi va muhofaza zonasini belgilash hamda o‘rmon o‘simliklarini degradatsiyaga uchrash jarayoni, sabablari va xorijiy tajribalar tahlili kabi masalalar yoritilgan.


O‘rmon fondi yerlari alohida ekologik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun ajratilgan yerlardan iborat. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, o‘rmon fondi yerlarining umumiy maydoni 12 092,5 ming gektarni tashkil etib, bu jami yer maydonining 26,9 % ini tashkil qiladi (Milliy hisobot - 2025) (1-rasm).



1-rasm. O‘rmon fondi yerlarini viloyatlar kesimida taqsimlanish diagrammasi (ming. ga. hisobida)

Zomin milliy tabiat bog‘i hududida O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan 20 tur o‘simlik bo‘lib, ulardan 5 turi dorivor giyohlardir.

Dala tadqiqot ishlaridan kelib chiqib, Zomin tumani Milliy bog‘ hududidagi o‘simliklar xaritasi tuzildi. Bunda GNSS qurilmasi yordamida o‘simliklar joylashgan hududlar koordinatalari aniqlanib, geoma'lumotlar bazasiga aniqlangan koordinatalar konvertatsiya qilindi. O‘simliklar aniqlangan hududlar maydonli qatlam ko‘rinishida shakllantirilib, Zomin tumani Milliy bog‘ hududidagi o‘simliklarning elektron raqamli xaritasi shakllantirildi (2-rasm).



2-rasm. Milliy bog‘ hududidagi o‘simliklarning joylashuv xaritasi

Zomin milliy tabiat bog‘i 1976-yilda tashkil topgan vaqtida umumiy yer maydon 24110 gektarga teng bo‘lgan. Hozirgi vaqtda uning yer maydoni 23609,2 gektarga teng bo‘lib, milliy bog‘ hududini 490,8 gektarga kamaygani tadqiqotlar davomida aniqlandi. Zomin milliy tabiat bog‘ida yovvoyi holda o‘sadigan o‘simliklarning 1216 dan ortiq turi mavjud. Ulardan 107 dan ortiq turida dori-darmonlik xususiyati aniqlangan. Shu bilan birga hududda “Qizil kitob” ga kiritilgan o‘simlikning 20 tur bo‘lib, ulardan 5 turi dorivor giyohlar sanaladi.

Natijada, milliy bog‘ hududida biologik xilma-xillikni saqlash, noyob o‘simlik turlarini muhofaza qilish hamda ularning tarqalish areallarini doimiy monitoring qilish zarurligi asoslandi. Shuningdek, yer maydonining qisqarishi hududda antropogen bosim va tabiiy omillar ta’sirini chuqur o‘rganishni talab etadi. Olingan natijalar asosida hududdan oqilona foydalanish, ekologik muhofaza choralari kuchaytirish hamda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“O‘rmon xo‘jaligi yerlarini raqamlashtirish va o‘rmon o‘simliklari degradatsiyasini aniqlashning tahliliy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘rmon o‘simlik degradatsiyasini aniqlash, tahlil qilishning amaliy-uslubiy asoslari, geoaxborot tizimlari va texnologiyalari asosida o‘rmon xo‘jaligi yerlarini raqamlashtirish va tasniflash hamda sun‘iy intellektga asoslangan

geofazoviy tahlillar yordamida o‘rmon xo‘jaligidagi mavjud daraxtlar miqdorini aniqlash usuli kabi masalalar tadqiq qilingan.


O‘rmon xo‘jaligida fazoviy tahlil usullarining nazariy imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ular yordamida daraxt kesish uchun eng maqbul hududlarni aniqlash, o‘rmon resurslari, yovvoyi hayvonlar yashash joylari va o‘rmon xo‘jaligiga ajratilgan maydonlarning yo‘l tarmoqlari hamda aholi punktlariga nisbatan joylashuvini tahlil qilish imkonini beradi.

ArcGIS Pro dasturining Deep Learning modeli hamda QGIS dasturining Deepness moduli orqali masofadan zondlash ma‘lumotlari asosida daraxtlarning soni avtomatik ravishda aniqlandi.

ArcGIS Pro dasturining Deep Learning modeli yordamida rastr va vektor ma‘lumotlari tahlil qilinib, hududning muhim xususiyatlari ajratib ko‘rsatildi. Olingan natijalar obyektlarni aniqlashda yuqori aniqlikni namoyon etgan bo‘lsa-da, ayrim maydonlarda noto‘g‘ri tasniflash holatlari ham kuzatildi.

QGIS dasturining Deepness: Deep Neural Remote Sensing plagini orqali olingan tasniflash natijalari tasvirlandi. Model natijalari ArcGIS Pro bilan solishtirilganda yuqori aniqlikka ega ekani ko‘rsatdi.

Xaritada ikkala tizim tomonidan tasniflangan hududlar ustma-ust joylashtirilib, tasniflash natijalari o‘rtasidagi farqlar vizual ravishda ko‘rsatilgan. QGIS dasturining Deepness modelining aniqlik bo‘yicha ustunligi yaqqol namoyon bo‘lib, u ob‘ektlarni aniqlashda kamroq xatolikka yo‘l qo‘ygani kuzatilgan. Shu bilan birga, ArcGIS Pro dasturining Deep Learning modeli ayrim hududlarda noto‘g‘ri tasniflashlarga sabab bo‘lgan. Mazkur xarita ikki tizimning samaradorligini imkonini berdi (**3-rasm**).



3-rasm. Ikki model natijalarining solishtirma tahlili

Zomin milliy tabiat bog'ida umumiy daraxtlar sonini aniqlash jarayonida hududning o'rmon bilan qoplangan maydoni rasmiy manbalar asosida aniqlanib, qo'shimcha ravishda relyef va o'rmon zichligini baholash uchun QGIS dasturining Deepness modelidan foydalanildi. Tadqiqot hududi bo'ylab 6 mln 780 dona daraxt mavjud ekanligi aniqlandi.

Dala monitoringi orqali real vaziyat bilan solishtirilganida, QGIS natijalari daraxtlarning haqiqiy joylashuvi, shakli va soyalarini yaxshiroq ajrata olgani tasdiqlandi. ArcGIS Pro modeli esa zich guruh bo'lib o'sgan yoki soyaga tushgan daraxtlarni bir obyekt sifatida qabul qilganligi sababli aniqlik darajasi past bo'lgan. Shuningdek, QGIS Deepness modeli kichik o'lchamli, yakka daraxtlarni ham tanib olishi bilan afzallik ko'rsatdi. Shunday qilib, yuqoridagi tahlillar asosida daraxtlar sonini masofadan aniqlashda QGIS platformasi modelining aniqlik, barqarorlik hamda dala ma'lumotlari bilan moslik darajasi yuqori ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.


Dissertatsiyaning **“Masofadan zondlash ma'lumotlari asosida o'rmon o'simliklari degradatsiyasini geofazoviy tahlil qilish usulini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida masofadan zondlash ma'lumotlari asosida degradatsiyaga uchragan o'simliklarning qayta tiklanish dinamikasini monitoring qilish, yong'in sababli degradatsiyaga uchrashga moyilligi yuqori bo'lgan o'rmon xo'jaligi hududlarni geofazoviy tahlillar asosida aniqlash hamda GAT asosida yong'in xavfi monitoringi uchun “GeoFire Monitoring” interaktiv veb-platformasini yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan.

Degradatsiyaga uchragan o'simliklarni qayta tiklash dinamikasini aniqlash uchun, Zomin milliy bog' hududida moslik tahlili amalga oshirildi. Zomin milliy bog'i noyob bioxilma-xillik, qimmatbaho o'simlik turlari va yovvoyi hayvonotiga boy hudud sanaladi. Biroq, qurg'oqchilikning kuchayishi, inson faolligining o'sishi va iqlim o'zgarishi tufayli yong'in hodisalarining chastotasi ortib borayotganligi bog' ekotizimlariga jiddiy tahdid solmoqda.

NBR doimiy ravishda “Landsat” va “Sentinel” tasvirlari uchun yong'in zarar ko'rgan hududlarni aniqlash va xaritalashda ustun natijalarni ko'rsatdi.

NDVI indeksi Jizzax viloyatidagi Zomin Milliy tabiat bog'ida yong'indan keyingi o'simliklarning tiklanishini samarali aks ettirishda cheklovlarga ega ekanligi aniqlandi.

Sentinel-2 va Landsat-8 ma'lumotlaridan hisoblangan NBR (Normalized Burn Ratio) va NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) indeksleri orqali yong'indan oldingi va keyingi holatlar xaritalashtirildi. Uch yil davomida kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, NBR indeksi yong'in zararlangan hududlarni aniqlashda yuqori sezgirlikka ega bo'ldi, NDVI esa o'simliklarning tiklanish dinamikasini kuzatishda samarali qo'llanildi, ammo yong'indan keyingi o'simlik qoplamining tiklanish jarayonini monitoring qilishda nisbatan kuchsiz ekanligini namoyish qildi. Ushbu yondashuv yong'indan keyingi ekotizimlarning barqarorligini baholash va tiklanish jarayonini geofazoviy monitoring qilishda muhim ahamiyat kasb etdi (4-rasm).




Yongʻindan oldingi tasvir
(25.07.2021)

Yongʻindan keyingi tasvir
(12.08.2021)

4-rasm. Zomin Milliy Tabiat Bogʻi hududidagi NBR tahlillarning umumiy koʻrinish xaritasi


Yongʻindan keyingi oʻsimlik qoplarning degradatsiyasi va tiklanish jarayonini baholashda dNBR (Differenced Normalized Burn Ratio) indeksi qoʻllanildi. dNBR – yongʻin oldin va keyingi tasvirlar asosida yongʻinning qanchalik kuchli taʼsir qilganini baholash uchun ishlatiladigan indeks. Bu oʻrmon yongʻinlari natijasida vegetatsiyaning oʻzgarishini aniqlash va tiklanish jarayonini kuzatish uchun juda muhim. Ushbu koʻrsatkich yongʻindan oldin va keyin hisoblangan NBR qiymatlari oʻrtasidagi farq asosida aniqlanadi va zarar koʻrgan hududlarni xaritalashda yuqori aniqlik beradi. Tadqiqotda Landsat 8, Landsat 9 va Sentinel-2 tasvirlari asosida dNBR qiymatlari hisoblab chiqildi hamda fazoviy taqsimoti xaritalashtirildi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, dNBR indeksi yongʻin intensivligini vizual va statistik tarzda eng yaxshi aks ettirdi hamda qayta tiklanish jarayonini aniqlashda samarali vosita sifatida namoyon boʻldi (5-rasm).

Umuman olganda, masofadan zondlash maʼlumotlari asosida olib borilgan ushbu yondashuv oʻrmon ekotizimlarining barqarorligini tahlil qilish, yongʻindan keyingi degradatsiya darajasini aniqlash va tiklanish jarayonini geofazoviy monitoring qilishda samarali metod sifatida oʻzini oqladi. Natijalar hududni boshqarish va ekologik xavfsizlik choralarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



5-rasm. Zomin Milliy Tabiat Bog'i hududidagi dNBR tahlilining umumiy ko'rinishi xaritasi (15.09.2021)

Taqdim etilgan metodologik sxema yong'in xavfi darajasini aniqlash va yong'inga moyil hududlarni fazoviy baholash jarayonini ketma-ket va ilmiy asosda amalga oshirish uchun ishlab chiqildi (6- rasm).



6- rasm. Yong'in xavfi yuqori bo'lgan hududlarni ko'p-kriteriyali baholash asosida aniqlash metodologik sxemasi

NASA POWER veb-sayti orqali tadqiqot hududining geografik koordinatalarni kiritilib, 2 metr balandlikdagi shamol tezligi va yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar olindi. Ushbu ma'lumotlar CSV, JSON yoki NetCDF formatlarida yuklab olindi. Mazkur tadqiqotda olingan shamol parametrlari ArcGIS Pro dasturida qayta ishlanib, hududiy shamol tezligi va yo'nalishining fazoviy taqsimot xaritasi tuzildi.

NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) – bu normallashtirilgan o'simlik indeksi bo'lib, vegetatsiyaning zichligi va sog'lomligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu indeks o'simliklardagi xlorofill miqdorini va ularning fotosintez faoliyatini aniqlash imkonini beradi. NDVI qiymatlari -1 dan +1 gacha bo'lib, +1 ga yaqin bo'lgan qiymatlar zich va sog'lom o'simliklarni, 0 ga yaqin qiymatlar tuproq, tosh yoki qurilish maydonlarini, -1 ga yaqin qiymatlar esa suv yuzalarini ifodalaydi. Sentinel-2 sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida NDVI quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$NDVI = (NIR - Red)/(NIR + Red) \quad (1)$$

Bu yerda:

- NIR - ya'ni yashillik spektrining yaqin infraqizil (Near Infrared) qismi.
- Red - qizil spektrning qismi.
- Sentinel-2 ma'lumotlarida NIR va Red kanallari quyidagi indekslar bilan ifodalanadi:

- NIR: B8 (842 nm)
- Red: B4 (665 nm)

NDMI (Normalized Difference Moisture Index) – Normallashtirilgan Namlik Indeksi – bu o'simliklarning namlik darajasini aniqlash uchun ishlatiladigan indeks bo'lib, u Yaqin infraqizil (NIR) va O'rta infraqizil (SWIR) diapazonlardagi spektral

tahlilga asoslanadi. NDMI asosan o‘simliklarning suv tarkibini baholash, qurg‘oqchilik monitoringi va o‘rmon yong‘inlariga ta’sirchan hududlarni aniqlash uchun ishlatiladi. NDMI formulasi:

NDMI hisoblash uchun quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$NDMI = \frac{NIR-SWIR}{NIR+SWIR} \quad (2)$$

Bu yerda:

- NIR (Yaqin infraqizil) – o‘simliklarning sog‘lig‘ini aks ettiruvchi to‘lqin uzunligi (masalan, Landsat 8 uchun Band 5).

- SWIR (O‘rta infraqizil) – o‘simliklardagi namlik miqdorini aks ettiruvchi to‘lqin uzunligi (masalan, Landsat 8 uchun Band 6 yoki Band 7).

NDMI (Normalized Difference Moisture Index) qiymatlari -1 dan +1 gacha bo‘lib, ular vegetatsiyaning namlik darajasini ifodalaydi. Yuqori qiymatlar (+0.2 dan yuqori) o‘simliklarda namlikning ko‘pligini ko‘rsatadi va vegetatsiyaning yaxshi holatda ekanligidan dalolat beradi. Salbiy yoki past qiymatlar (-0.2 va past) qurg‘oqchilik sharoitini yoki vegetatsiyasiz hududlarni bildiradi. O‘rtacha qiymatlar (0.0–0.2) esa o‘simliklarning namlik darajasi past yoki normal ekanligini ifodalaydi. Shu bois, NDMI qurg‘oqchilik monitoringi, vegetatsiya holatini baholash va yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

SAVI (Soil Adjusted Vegetation Index) – Tuproqqa Moslangan Vegetatsiya Indeksi – bu vegetatsiya (o‘simlik qoplami) zichligini aniqlash uchun ishlatiladigan indeks bo‘lib, NDVI indeksining rivojlangan shakli hisoblanadi. U ayniqsa tuproq yuzasi ochiq bo‘lgan, ya’ni vegetatsiya kam joylarda aniq natija beradi. SAVI quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$SAVI = \frac{(NIR-Red)}{(NIR+Red+L)} * (1 + L) \quad (3)$$

Bu yerda:

- NIR (Near Infrared, yaqin infraqizil) – o‘simliklarning sog‘lig‘ini aks ettiruvchi to‘lqin uzunligi (Landsat 8 uchun Band 5).

- RED (Qizil spektr) – o‘simliklar tomonidan eng ko‘p yutiladigan to‘lqin uzunligi (Landsat 8 uchun Band 4).

- L – tuproqni tuzatish koeffitsienti (odatda 0.5 deb olinadi).

SAVI qiymati +1 ga yaqin bo‘lsa, bu hududda zich vegetatsiya mavjudligini anglatadi. Agar qiymat 0 dan 0.3 gacha bo‘lsa, bu siyrak vegetatsiya mavjudligidan dalolat beradi. 0 yoki manfiy qiymatlar esa hududda vegetatsiya yo‘qligini, ya’ni tuproq, suv yoki beton kabi sirtlarning ustunligini bildiradi. Shu sababli, SAVI ayniqsa vegetatsiya qoplamasi kam bo‘lgan hududlarda o‘simlik zichligini aniqroq baholash uchun ishlatiladi.

LST (Land Surface Temperature) – yer yuzasi sirtining haqiqiy haroratini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u infratovush nurlanish (termal infraqizil) ma’lumotlari asosida hisoblanadi. LST asosan ob-havo monitoringi, qurg‘oqchilik tahlili, issiqlik to‘plami effekti va yong‘in xavfini baholash uchun ishlatiladi. LST

ni hisoblash uchun termal infraqizil (TIR) ma'lumotlari kerak bo'ladi. Landsat sun'iy yo'ldosh tasvirlari uchun LST hisoblash quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Radiyatsion yorqinlik haroratini (Brightness Temperature – BT) hisoblash
 - Landsat 8 va 9 sun'iy yo'ldoshlari TIR1 (Band 10) yoki TIR2 (Band 11) kanalidan foydalaniladi.
 - BT quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$BT = \frac{K2}{\ln\left(\frac{K1}{L}+1\right)} \quad (4)$$

Bu yerda:

- L – tarmoqli yorqinlik (Top of Atmosphere, TOA),
- K1 va K2 – Landsat sun'iy yo'ldoshi uchun berilgan doimiy qiymatlar.

